

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI
KAFEDRASI**

КУРС ИШИ

Mavzu **Jadid adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari**

Bajardi: Yodgorova Mehribon

Qabul qildi: Duysenbayev O

Nukus -2013

Mavzu: Jadid adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

Reja:

1. Jadidchilik harakatining boshlanishi
2. Jadid adabiyoti vakillari ijodi.
3. Jadidchchila g'oyalarida – ma'rifatparvarlik g'oyalari.

XX asr faqat o'zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida alg'ov-dalg'ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo'ldi. Vu asrga kelib, hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi. Ijtimoiu hodisalarning almashinish surati aqlga sig'mas darajada tezlashdi. Turkiston xalqlarining necha asrlar mobaunida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hauoti Shu asr boshida ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Fikrdagi yangilanish, texnika yutuqlarining kirib kelishi, axborot almashishning tezlashgani turkistonliklarning hauot tarzlarini o'zgartirib yubordi. Shu vaqtga qadar milliy adabiuotimiz milliy hauotimiz bilan uelkama-uelka bormas edi. Garchi, adabiyotimiz hauotdan tamomila ajralib qolmagan bo'lsa-da, ijtimoiy turmushning muamolari uni to'la chulg'ab olmasdi: XX asrga kelib, adabiyot hauotga yaqinlashdi. Vu bilan kifoyalanib qolmay, hauotni o'zgartirishga urina boshladi. Rossiya bosqini, uning zo'ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining usiz ham og'ir bo'lgan hayotini yanada qiunlashtirdi. Ijtimoiy adolatsizlik, huquqiu tengsizlik tufayli keshauu-kunduz tinim bilmay ishlagan yurt egalari tobora qashshoqlashib, ularni talash va aldash bilan shug'ullangan bosqinchilar boyib bormoqda edi. Qashshoqlik tufayli esa turkistonliklarda g'urursizlik, johillik, tobelik, loqaydlik singari illatlar shakllanmoqda ediki, bu hol o'z millatining o'tmishidan xabardor va kelajagidan umidi bor ijodkor ziyolilarni bezovta qilmasligi mumkin emasdi. XIX asrning adog'i XX asrning boshlarida birgina Turkistonda emas, balki dunyodagi juda ko'p mustamlakalarda milliy uyg'onish harakati boshlangan edi. Ijtimoiy adolatsizlikni yo'qotmoqchi, nohaq tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'lgan fikr kishilari millatning noshor holati va og'ir turmush tarzini o'zgartirish ushun dastlab xalqqa bilim berish kerak, deb hisobladilar. Millatni g'aflatdan uyg'otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hesh narsaga erishib bo'lmasligi tushunib yetildi. Millatga ma'rifat berish sifat jihatidan ham, sur'at jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil etilishi lozimligi auon bo'ldi. Faqat ruhga ta'sir etadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib bo'lmasligi, fan-texnika asoslarini puxta o'rganish zarurligi anglab yetildi. Buning uchun yangi o'qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran

shakllana boshlagan ma'rifatshilik qarashlari XX asr boshlariga kelib jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. "Jadid" so'zi arabsha "yangi" ma'nosini berib, taraqqiyotga intilgan kishini anglatadi. Ma'rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g'aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar. Shuni aytish kerakki, ma'rifatshilik bilan jadidchilik faqat yuzaga kelgan vaqt nuqtayi nazaridangina emas, balki o'z oldiga qo'ygan maqsadlari jihatidan ham turli hodisalar edi. Chunonchi, ma'rifatchilar mavjud holatni o'zgartirishni emas, balki uni isloh qilishni, xalqning ma'rifiy saviyasini ko'tarishni maqsad qilgan edilar. Jadidlar uchun ommani ma'rifatli qilish bosh maqsad yo'lidagi bir bosqich edi, xolos. Maqsad esa vatanni obod, millatni ozod qilish va Turkistonning avvalgi shuhratini tiklashdan iborat edi. Ishni XIX asrning 90- yillarida yangi usul maktablari tashkil qilishdan boshlagan jadidlar ko'p o'tmay, Turkistonda hur, demokratik mustaqil davlat tuzishni rejalashtirdilar. 1917- yilda Turkiston muxtoriyatining bunyod etilishi shu rejaning amalga oshirilishi yo'lidagi jiddiu urinish edi. XX asr boshiga kelib, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, xalqaro aloqalarning takomillashuvi millatning ma'rifatli vakillariga o'z xalqi hayotini dunuodagi mutaraqqiu xalqlar turmushi bilan solishtirish imkonini berdi. Rossiyada 1905- yil oktabrdagi so'z va matbuot erkinligi haqidagi Manifestning qabul etilishi natijasida o'zbek matbuotining rivojlanishiga ham bir qadar imkon yaratildi. Agar o'zbek tilidagi birinchi va yolg'iz gazeta 1870- yildan chop etilayotgan "Turkiston viloyatining gazetisi" bo'lsa, 1905- yildan so'ng vaqtli matbuot soni ansha ko'paydi. 1905-1917- yillar orasida o'lkada 22 gazeta, 8 jurnal o'zbek tilida chiqarilgan. Bu hol millat ahlining tafakkur tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Kundalik matbuot o'zbek adabiyotidagi yangilanishlar ko'lamining kengayishiga sabab bo'ldi. Kitobning sanoat uo'li bilan shor etilishi ham millat ijtimoiy-estetik tafakkuri rivojlanishining kuchli omili bo'ldi. Jadid adabiyoti to'lig'isha millatni uyg'otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki ommaning ichidan chiqqan, unga qatib boradigan va shu

bois xalqqa ta'sir ko'rsatish imkoniyati kattaroq bo'lgan oddiy kishilar edi. Jadid adiblari yangi mavzularni uangi janrlarda va yangi obrazlar orqali ifodalashga urindilar. Yana bir muhim jihat Shundaki, jadid uozuvshilari shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy amali bilan ham millatni uyg'otishga jahd qilgandilar. Agar ma'rifatchilar ko'p asrlik milliy adabiyotga yangi mavzular olib kirgan bo'lsa, jadidlar o'zbek adabiyotiga drama, roman, hikoya singari uangi janrlarni kiritdilar. M. Behbudiyning "Padarkush", A. Avloniyning "Advokatlik osonmi", "Pinak", "Biz va siz", "Ikki sevgi", Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi", "Oila", "Yurt qayg'usi", "Abulfayzxon", "Shautonning tangriga isyoni", "Qiyomat", Hamzaning "Uyon, Vatan!", "Yig'la, Turkiston", "Dardiga darmon istamas", "Turkiston", "Shundoq qolurmu", "Yangi saodat...", "Zaharli hayot...", "Vou ila xizmatchi", "Maysaraning ishi" , "Paranji sirlaridan bir lavha", "Istibdod qurbonlari", "Loshmon fojiasi", "Farg'ona fojiasi", Qodiriyning "Uloqda", "Tinch ish", "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi", "O'tkan kunlar", "Mehrobdan shayon " , Sho'ironing "Buzilgan o'lkaga", "Xalq", "Ko'ngil", "Vinafsha", "Go'zal Farg'ona", "Go'zal", "Vahm", "Istash", "Galdir", "Bahorni sog'indim", "Sirlardan", "Yorqinoy", "Kecha va kunduz" singari va boshqa yuzlab asarlar jadid adabiyotining yetuk namunalaridandir. Jadid adiblarining asarlarida insoniy taqdir, qismat fojialari millat ozodligi, inson erki, Vatan buyukligi muammolari fonida aks ettirildi. Jadid adabiyotida tarixiy adolat, siyosiy tenglik, shaxs va millat erki, xalqni g'aflatdan uyg'otish singari o'tkir ijtimoiy muammolar juda ko'p tasvirlandi. Jadidlarning vatan, millat, ozodlik yo'lida jon fido etishga chorlab bitilgan olovli asarlari samimiu, ammo yuksak darajada ijtimoiylashgan shaxslarning nidolari edi. Bunday asarlarda millatning ulkan dardi ma'rifatli insonning shaxsiy fojiasi bilan birgalikda ifoda etilardi. Tuyg'ulur samimiyati, iztirob ko'lamining kengligi ruhiy dardlar teranligini oshirib, umumning dardi alohida shaxsning g'ami, iztirobi darajasiga ko'tarilardi. Odatda, ko'rshilikning iztiroblari alohida shaxslarning dardlaridan baland turadi deb hisoblaniladi. Nolibuki, dard xususiylashsagina umuminsoniy miqyos kasb etadi. Jadid adabiyoti

faqat mavzu jihatidan emas, balki ifodasiga ko'ra ham ommaga uaqinlashtirildi. Badiiy asarlarda tasvir injaligi, ifodaning yangiligidan ko'ra, zalvorli va keskin fikr aytishga e'tibor kuchaydi. She'riyat aruzga xos ohangdorlikdan chekinib, barmoqqa xos ochiqlikka erishdi. Kuylanishdan da'vatga aylandi. Aytish kerakki, Sho'rolar davrida o'zbek adabiyotining mohiyati tubdan o'zgardi. Lekin bu birdaniga sodir bo'lmadi. 1917- yilgi oktabr to'ntarishidan keyingi dastlabki davrlarda ham so'z va ijod erkinligi bir qadar saqlandi. Sho'rolar uetarlisha siyosiy va tashkiliy kuchga ega bo'lmagani, uning g'oyalarini kuylaydigan adiblar qatori hali shakllanmagani uchun badiiy adabiyotda nisbatan erkinlik bor edi. Eng iste'dodli ijodkorlar, tabiiy ravishda, millat va vatan ozodligi ushuni kurashayotgan jadid yozuvchilari safida edi. Shuning uchun ham Fitratning "Abulfayzxon" dramasi, "Shautonning tangriga isyoni", "Qiyomat" hikoyalari, Hamzaning "Vou ila xizmatchi", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlaridan bir lavha" dramalari, Qodiriyning "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi", "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon". Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga", "Xalq", "Ko'ngil", "Binafsha", "Go'zal", "Qalandar ishq", "Galdir", "Sirlardan" she'rlari, "Yorqinoy" dramasi, "Kecha va kunduz" romani singari asarlar sho'rolar davrida uaratilgan bo'lsa-da, mohiyatan jadid adabiyoti namunalari. Chunki e'tiqodi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra jaded bo'lgan, hayotni jadidchasi badiiy idrok etadigan odamlar tomonidan yaratilgan edi.

Badiiy adabiyot taraqqiyotining ichki omillari mavjudligi va ularning ahamiyatini zarracha inkor etmagan holda, biz har bir davr adabiyotining g'oyaviy-mazmuniy hamda poetik xususiyatlari, avvalo, o'sha davrning ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi, deb hisoblaymiz. SHu bois ham CHo'lpon poetikasi haqidagi mulohazalarimizni u adabiyotga kirib kelgan davr shart-sharoitlariga, xususan, adibning ijodiga beqiyos katta ta'sir ko'rsatgan jadidchilik harakatiga qisqacha to'xtalishdan boshlash zarurdir.

XX asr boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining o'ziga xosligi, ma'lumki, ikki asosiy omil: 1) kapitalistik ijtimoy munosabatlarning qaror topa boshlagani hamda 2) Turkistonning mustamlaka o'lkasi bo'lganligi bilan

belgilangandir. YA'ni, yurtimizda yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topa boshlashi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning tabiiy hosilasi emas, ko'proq tashqi omillar ta'siri bilan bog'liq edi. Ijtimoiy taraqqiyot bobida evropa mamlakatlaridan ancha ortda qolgan Rossiya ta'sirida hali anchagina mustahkam feodal asoslarga kapitalistik munosabatlar payvandlana boshlandi. Albatta, bu narsa ijtimoiy-taraqqiyot sur'atini tezlatdi, biroq yurtimizda eskilik va yangilikning ajib quramasi vujudga keldiki, har ikkisinin orasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Bu esa, tabiiyki, eskilikni tugatish, jamiyat hayotini isloh etishu millatni taraqqiy ettirish zaruratini kun tartibiga qo'ydi. Ayni shu zaruratni teran idrok qilgan fidoyi ziyolilarimizni yagona MAQSAD atrofida birlashtirgan ma'rifiy-islohiy harakat milliy tariximizga jadidchilik nomi bilan kirdi. Ma'lumki, jadidchilik harakatini atroflicha va ilmiy xolis o'rganila boshlanganiga xali ko'p bo'lganicha yo'q, u haqdagi yirik fundamental tadqiqotlarning paydo bo'lishi yaqin kelajakda kutiladi. Tabiiyki, biz bu o'rinda jadidchilik harakatining mavzuimizni yoritish uchun zarur o'rinlarigagina to'xtalamiz.

Asrimiz boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga ta'sirini yorqinroq tasavvur qilish uchun, fikrimizcha, uni Evropa adabiyoti tarixi bilan muqoyasa qilish foydalidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati o'zining ko'p jihatlari bilan XYIII asrda Evropada keng quloch yoygan ma'rifatchilik harakatiga o'xshashdir. Har ikki harakatga xos mushtarak nuqtalarga bir qur nazar solinsayoq, bizningcha, bu fikrimizda jon borligi anglashiladi. Avvalo shuki, har ikki harakat ham feodal asoslar emirilib, ularning o'rnida kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan paytda maydonga kelgan. YA'ni, har ikki harakatning yuzaga kelishini zaruratga aylantirgan ijtimoiy tarixiy sharoitning o'xshashligi ulardagi o'xshashlikni keltirib chiqargan. Feodal ijtimoiy munosabatlardan farq qilaroq, kapitalistik munosabatlar jamiyatning har bir a'zosi uchun teng boshlang'ich (start) imkoniyatlar ochishi bilan xarakterlanadi. YAngi sharoitda insonning taqdiri va jamiyatdagi o'rnini ilgarigidek ijtimoiy kelib chiqishi emas, aqlu zakovati, tadbirkorligiyu omilkorligi belgilaydi. Ko'rinadiki, yangicha ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy

maqomini o'zgartirdi, u endi o'zini ijtimoiy shaxs sifatida — jamiyatning va o'zining hayotiga faol ta'sir ko'rsata oladigan unsur sifatida anglay boshlaydi. SHaxs maqomining o'zgarishi bilan feodal-monarxik tartiblarning eskirgani, jamiyat hayotini isloh etish zarurati tobora ravshan ko'zga tashlana boradi. Evropaning qator mamlakatlarida ayni shu xil sharoit yuzaga kelganida maydonga chiqqan harakat ma'rifatchilik harakatidir. Ma'rifatchilik harakatining ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan uzviy bog'liqligini shundan ham ko'rsa bo'ladiki, uning g'oyalari evropa mamlakatlarining hammasiga bir paytda emas, konkret mamlakatda buning uchun mos ijtimoiy sharoit yuzaga kelgandagina yoyilgan: avval Angliyada, keyinroq Frantsiyada, so'ng Germaniyada (ma'lumki, jadidchilik g'oyalarining qrim, Tatariston, Ozarbayjon, Turkiston hududlariga yoyilishida ham shunga o'xshash holni kuzatish mumkin: ularning har birida g'oyaning o'zlashishi va ommalashuv darajasi turlicha bo'lgan). Jadidchilikka o'xshab, Evropa ma'rifatchiligining ham yagona harakat dasturi bo'lgan emas, har ikki harakat ichida ham qarashlar turlichaligi (biroz konservativroq qarashlardan to radikal qarashlargacha) mavjud edi. Ma'rifatchilar eskirgan ijtimoiy asoslarni tamomila inkor kilib, yangi — inson tabiatiga mos, "aql"ga muvofiq jamiyat qurish g'oyasi bilan chiqqanlar. Jadidchilarga o'xshab, ular ham ijtimoiy islohnı amalga oshirishda ma'rifat yoyishni asosiy vositalardan biri deb bilganlar. O'z g'oyalarining imkon qadar keng doirada yoyilishini istagan ma'rifatchilar nashriyot-matbaa ishlariga katta ahamiyat berganlar, kichik hajmli va arzon risolalar chop etib tarqatganlar. Ma'lumingizki, jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalari (Behbudiy, Munavvar qori, Ibrat va boshq.) ham noshirlik bilan shug'ullanganlar. Boz ustiga, jadidchilarning yuqoridagicha maqsad yo'lidagi sa'y-harakatlari o'zbek milliy matbuotining shakllanishiga olib kelgani ham ma'lum.

Mutaxassislar evropa ma'rifatchiligini "falsafiy, ijtimoiy, axloqiy kontsepsiya", yangicha dunyoqarashga asos bo'lgan MAFKURA deb hisoblaydilar. YAngi mafkuraning o'zagini "inson aqlu zakovatigina dunyoni o'zgartirishi mumkin", degan qarash tashkil etadi. Darhaqiqat, ma'rifatchilik

g'oyalari ijtimoiy ongning keyingi taraqqiysiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi: XYIII asrdan boshlab moddiyunchilik qarashlari tobora ko'proq kishilarning ongini zabt eta boradi. Muayyan ijtimoiy sharoit mahsuli sifatida dunyoga kelgan bu mafkura jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, adabiyot va san'atda tub burilishlar yasadi. Evropada ma'rifatchilik g'oyalari ta'sirida yangicha estetik printsiplarga tayangan adabiyot shakllandiki, uning asosida "dunyoni va insonni o'zgartirishga qodir g'oyaviy adabiyot kerak", degan aqida yotadi. YA'ni, boshqacha aytsak, ma'rifatchilarning ijtimoiy ideali — "inson tabiati va "aql"ga muvofiq jamiyat qurish" ma'rifatchilik adabiyotining estetik idealiga aylandi. Bu esa adabiyotningda shunga muvofiq holda o'zgarishini taqozo qildi. Mazkur o'zgarishlar orasida eng muhimi — idealning "erga tushgani"dirki, buning natijasi o'laroq badiiyat, go'zallik tushunchalariga ham jiddiy tahrirlar kiritildi.

Jadidchilar kabi ma'rifatchilar ham adabiyotda, avvalo, o'quvchilarni tarbiyalash asosida ijtimoiy hayotni isloh qilish vositasini ko'rganlar. SHu bois ham ma'rifatchilik adabiyotidagi qator jihatlar jadid adabiyotidagi tamoyillarni esga soladi. Badiiy adabiyotga konkret maqsadga erishish vositalaridan biri sifatida qaraganlari uchun ham ma'rifatchilarning asarlarida ko'pincha qahramonlar orasida ochiq g'oyaviy kurash kechadi, qahramonlar tilidan muayyan g'oyalar aytiladi, qisqasi, g'oya asarning birlamchi unsuriga, uni ifodalash muallifning birlamchi maqsadiga aylanadi. SHu jihatdan, ayrim adabiyotshunoslarning "ma'rifatchilik realizmi" atamasidan ko'ra "didaktik realizm" atamasini ma'qul ko'rishlari bejiz emas, albatta. Zero, ma'rifatchilik adabiyoti, bir tomondan, adabiyotni hayotga yaqinlashtirdi, ikkinchi tomondan, uni tarbiya vositasi deb bildi. Ma'lumigizki, ayni shu ikki tamoyil jadid adabiyotining ham mohiyatini belgilovchi xos xususiyatlar sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ma'rifatchilar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar beruvchi san'at turlari va janrlarga ayrica ahamiyat berganlar. Xususan, ular teatrni o'z g'oyalarini targ'ib etish minbari deb bilganlar, shu bois ham dramatik janrlar rivojlantirilgan, sahnada o'ynalayotgan voqealar hayotiylik kasb etib borgan. Didro, Lessing kabi yirik ma'rifatchilar teatr san'atiga, dramaturgiyaga

bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yaratishganki, bu ham yuqoridagi fikrimiz daliliga xizmat qiladi. SHuni ham aytish kerakki, ma'rifatchilik adabiyotida badiiy proza ayniqsa faol rivojlantirildi: "epistolyar roman", "sayohatnoma roman", "tarbiya romani", "falsafiy qissa" kabi qator yangi janrlar ishlab chiqildi; inson xarakterini yaratishning yangi-yangi imkoniyatlari kashf etildi, yangi usulu vositalar joriy qilindi.¹ Ma'rifatchilik adabiyotida, ayniqsa, hayotni atroflicha badiiy tahlil etishu yaxlit badiiy kontseptsiyani ifodalash imkonini beruvchi roman janri gurkirab rivoj topdi. SHu o'rinda jadidchilarning milliy teatrimizni shakllantirish yo'lidagi jonbozliklarini, jadid nashrlarida bot-bot uchrab turgan "bizga tiyotr va ro'mon kitoblari kerak" qabilidagi xitoblarni eslasak, mushtaraklik yana ham bo'rtib ko'zga tashlanadi.

E'tiborli jihati shundaki, Evropadagi ma'rifatchilik adabiyoti bilan jadid adabiyotining o'xshashlik jihatlari badiiy shakl bobidagi izlanishlarda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, frantsuz adibi Monteskening "Fors xatlari", ingliz yozuvchisi Goldsmitning "Dunyo fuqarosi yoki xitoylik kishi xatlari" nomli asarlarida Evropa voqeligi chet ellik kishilar — birida fors, ikkinchisida xitoylik kishi nigohi orqali beriladi. Bu xil badiiy-kompozitsion usulga murojaat qilinishining sabablarini qo'ya turaylik-da, Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi" asarlarida ham shu yo'ldan borilganini eslaylik. YOki "Munozara"ning dialog shaklida qurilganini olaylik. Qadimgi yunon faylasuflari foydalangan bu shakl XYIII asrda ma'rifatchilar tomonidan tiriltirilgan, Didro, Lessing, Gerderlarning falsafiy-publitsistik asarlari(hatto Didroning "Ramo jiyan" romani)dan ayrimlari ayni shu shaklda yozilgan edi. O'ylashimizcha, mazkur masala maxsus o'rganilsa, bulardan boshqa ham mushtarak o'rinlar topilishi, ehtimol.

YUqoridagi mulohazalarimizdan ko'rinadiki, evropa ma'rifatchilik adabiyoti bilan jadid adabiyoti orasida qator o'xshashliklar mavjud. Buning sababi esa, bizningcha, ko'proq har ikki adabiyotni yuzaga keltirgan ijtimoiy-tarixiy omillar, har ikki harakat ko'zlagan maqsadlardagi o'xshashlik bilan izohlanishi mumkin.

¹ Бу ҳақда муфассал маълумот олиш учун қаранг: История всемирной литературы: В 9 т. Т.5.- М.,1988.- С.19-32

Albatta, har ikki adabiyotda ham konkret ijtimoiy-tarixiy sharoitning o'ziga xosligi, adabiy-madaniy an'ana bilan bog'liq xususiyatlar ham yo'q emas. Biroq masalaning bu jihatiga to'xtalish bizning maqsadimizga kirmaydi. SHu bois ham yuqoridagi mulohazalarning o'zigayoq tayangan holda ilk xulosalarni chiqarishga jur'at qilamiz.

Bizningcha, Turkistondagi jadidchilik harakati ham xuddi Evropa ma'rifatchiligi kabi MAFKURA edi. Konkret ijtimoiy-tarixiy sharoitda — yurt mustamlaka zulmi ostida ezilgan, jahon taraqqiyotidan uzilib, qoloqlik domiga tushib qolgan bir paytda bu xilda yashab bo'lmasligini teran idrok etgan ziyolilar ijtimoiy hayotni isloh qilish, millatni taraqqiy ettirish taraddudiga tushgan edilar. Ularning islohotchilik g'oyalari milliy turmushning barcha sohalariga — maorif, madaniyat, din, iqtisodiyot va ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarga — birdek taalluqli edi. Aytish kerakki, xuddi Evropa ma'rifatchiligi kabi jadidchilik ham yagona harakat dasturiga ega emas edi. YA'ni, jadidchilik harakatiga qo'shilgan kishilarning qarashlarida muayyan farqlar bo'lgani holda, ularni umumiy maqsad — millatni ma'rifatli qilish orqali yurtni taraqqiy ettirish (botiniy maqsad sifatida milliy ozodlikni ham aytish joiz, chunki amalga oshirilajak ishlar pirovard natijada istiqloлга olib kelishi lozim edi) G'OYAlari birlashtirar edi. Jadidchilik g'oyalarini ommalashtirishda adabiyotning roli benihoya katta edi, biroq, ayni paytda, bu ulkan tarixiy missiyani uddalash uchun adabiyotning o'zidan ham shunga mos holda o'zgarish, yangilanish talab qilinardi. Ayni shu ijtimoiy-adabiy zaruratni teran anglagan ijodkorlarning izlanishlari natijasi o'laroq, milliy adabiyotimiz sifat jihatidan yangilandi. YA'ni, asrimiz boshida maydonga kelgan jadidchilik harakati milliy adabiyotimiz tarixida sifat jihatidan **yangi** — **jadid** adabiyotini maydonga chiqardi. Bu adabiyotning mazmun-mohiyatini belgilagan asosiy estetik tamoyillar sifatida tubandagilarni ko'rsatish mumkin: a) estetik idealning "erga tushgan"i, ya'ni, jadidchilik harakatining ijtimoiy ideali uning estetik idealiga aylangani; b) ijtimoiy yo'naltirilganlik, muayyan g'oyani singdirishga safarbar etilganlik; v) tematik jihatdan real hayotga yaqinlik; g) mazmun va shaklning xalqchillashuvi. Bularning bari milliy adabiyotimizda

realistik tamoyillarning intensiv ravishda egallanib borishiga asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur yangiliklar milliy adabiyotimiz o'z taraqqiyotida jahon adabiyoti tomon yuzlanganidan, jahon adabiyotining ilg'ori borayotgan magistral yo'lga tushib olganidan dalolat edi.

Albatta, shu o'rinda "jadid adabiyoti" degan atama o'zini oqlaydimi? Uning muomalaga kiritilishida biroz soxtalik, adabiyotni ijtimoiy hayotgagina bog'lab o'rganish amaliyotining ta'siri sezilmaydimi?" degan andishalar paydo bo'lsa, mumkin. Bizningcha "jadid adabiyoti" degan atama o'sha adabiyotning paydo bo'lish vaqti yoki g'oyaviy jihatlarini bilangina bog'liq emas. Zero, jadidchilik g'oyalari o'z atrofida turli ijodkorlarni birlashtirgani holda ijtimoiy yo'naltirilgan, o'zining badiiy arsenalida SHarq /arb adabiyotlariga xos usulu vositalarni omixta etishga intilgan yangi adabiyotni maydonga chiqardi. Biroq, aytish kerakki, jadid adabiyoti vakillari o'z faoliyatlarining g'oyaviy tamoyillarini teran anglaganlari holda, yangi adabiyotning ijodiy tamoyillarini mukammal adabiy-estetik dastur tarzida shakllantirib ulgurmadilar — ijtimoiy hayotdagi keskin burilishlar bunga imkon bermadi. SHunga ko'ra, bizningcha, jadid adabiyotini milliy adabiyotimiz tarixidagi **g'oyaviy-adabiy oqim**² sifatida tushunilgani ma'qulroq ko'rinadi.

Jadid adabiyotining yorqin namoyandalaridan bo'lmish CHo'lpon "yangi adabiyot qanday bo'lmog'i lozim?" degan savolni birinchilardan bo'lib o'rta tashlagan va unga baholi qudrat javob berishga intilgan edi. "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914 yil 4 iyun sonida e'lon qilingan "Adabiyot nadir?" nomli maqolasi adibning adabiy-estetik qarashlari haqida tasavvur beruvchi ilk manbadir. "Adabiyot,- deb yozadi u mazkur maqolasida,- har bir millatning hisli ko'ngil tarxining eng qorong'u xonalarida maishat(tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda etishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida aning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradir".³ Ko'ramizki, CHo'lpon adabiyotga ta'rif berarkan, bir tomondan, uning ko'ngil olamiga tegishliligini, ikkinchi tomondan, ijtimoiy hayot

² Гоявий адабий оқим ҳақида қаранг: Поспелов Г.Н. Проблемы исторического развития литературы.- М.,1972.- С.258-270

³ Чўлпон. Адабиёт надир.- Т.: Чўлпон,1994.- Б.35-36

("maishatning ketishi") bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Aytish kerakki, muallif adabiyotni ijtimoiy hayotning illyustratsiyasi yoxud ijtimoiy hayot bilan adabiyot munosabatini "Bazis-ustqurma" tarzida tushunmaydi. O'ylashimizcha, adibning "maishatning ketishi"ga alohida urg'u berishining sababi o'zgacharoqdir. Zero, Cho'lpon bu o'rinda boshqa masalaga diqqatni jalb qiladi: adabiyot va o'quvchi omma munosabatini anglashga intiladi. Muallifning fikricha: "Har sinf xalqning o'ziga maxsus ohangi, o'ziga ta'sir qiladigan zori bo'lur". Ko'ramizki, adabiyotni qabul qilish muammosiga qiziqayotgan adibning "maishatning ketishi"ga alohida urg'u berishi bejiz emas. Sababki, xalqning "zori"(dardi, orzu-intilishlari, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari va h.) istasak-istamasak shu ijtimoiy hayot muammolari bilan bog'liq; xalqqa "maxsus oxang"(deylik, shakl masalasi) ham bilvosita ijtimoiy turmushga — xalqning umumiy madaniy-ma'rifiy saviyasiga bog'liq. Cho'lpon badiiy adabiyotning tushunilishi, o'quvchiga estetik ta'sir o'tkazishining ijtimoiy-psixologik asoslarini tubandagicha tushuntiradi: "Mana shul muhit bo'shlig'inda bo'lg'on qat'iy to'lqunning birlashmagindan har odamga har xil shodlik va yo ko'b achchiq ta'sir etmagindan odamning ko'nglida o'zi bilmasdan o'rnashub qolg'on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg'on qayg'ulanmak va yo ko'krak kerib ko'b dam olurday oh urmaklar — hammasi ko'ngilda har xil rangda, har xil kayfiyatda to'lub yotqon adabiyot xosasidan sanalur". Demak, Cho'lponning fikricha, kundalik hayotda odamning "ko'nglida o'zi bilmasdan o'rnashub qolg'on" his-tuyg'ular adabiyotni tushunishning asosidir. SHunga ko'ra, yozuvchidan "maishatning ketishi"ni, xalqqa "ta'sir qiladigan zor"ni juda yaxshi bilish va xalqning o'ziga "maxsus ohang"da ayta bilishlik talab qilinadi. Ko'ramizki, adabiyot xalqqa xizmat qilishi lozim, degan e'tiqod bilan yashagan (to'g'rirog'i, millatga xizmat qilish niyati bilan adabiyot maydoniga kirgan) Cho'lpon uning shu xalqqa mos bo'lishi, shu xalq tushunadigan bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Sirasi, Cho'lponning fikrlari muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda adabiyot ahli oldida ko'ndalang bo'lguvchi "adabiyot ommaviy bo'lishi kerakmi yoki elitarmi?" degan savol tegrasida aylanadi. Ko'rib o'tganimizdek, Cho'lpon adabiyot xalqchil bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Adib tushunchasidagi

"xalqchillik" ikki jihat bilan belgilanadi: birinchidan, adabiyot xalqning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qilishi lozim; ikkinchidan, adabiyotning ifoda vositalari xalqqa tushunarli bo'lishi kerak. Cho'lponning bu xil qarashi keyinroq yozilgan teatr taqrizlarida ham ko'zga tashlanadi. Xususan, "Abo Muslim" spektakliga yozgan taqrizida tubandagicha so'zlarga duch kelamiz: "Xalq teatrga yurmaydi", degan gap to'g'ri emas, xalk yuradir. Lokin teatr-tomosha ismida bo'laturg'on qurchoq o'yunlariga, o'z ruhiga yot bo'lg'on, unga anglashilmaydirg'on tarjimalik "g'arbiy" asarlarga yurmasa haqi bordir. Yo'q esa o'zini qiziqtiraturg'on zaminlarda yozilg'on va yaxshi o'ynalaturg'on tomoshalarga xalq yuradir".⁴ Demak, Cho'lponning fikricha, sahna asari (jumladan, adabiy asar ham) xalq ruhiga yaqin bo'lishi, milliy zamindan, baski, uning tashvishu muammolaridan uzilmasligi lozim. Biroq xalqni o'ziga jalb qilish uchun mazkur shartlar bajarilishining o'zi kifoya emas: sahna asari yaxshi o'ynalishi (adabiy asar yaxshi yozilishi) ham zarurdir. Cho'lponning "xalqchillik" masalasiga ayrica e'tibor berishi, ravshanki, uning adabiyotni millatni "uyg'otish" vositasi deb bilgani bilan bog'liqdir. Adib 1914 yilda yozgan "Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik" nomli maqolasida: "bu to'g'rida(ziroat mashinalari haqida – Yu.N.) "Oyna", "Sadoi Farg'ona"larimiz, mumkin bo'lsa, qishloq tilida ko'broq yozib anglatsalar... xalq turmushini engillik tarafiga bir necha odum otlatqon bo'lur edilar",⁵ – deb yozgan edi. Ko'ramizki, ma'rifat yoyish ("xalqqa anglatish") uchun ko'p yozishning o'zi kamlik qiladi, avvalo, xalq tushunadigan tilda ("qishloq tilida") yozishlik zarur. Yosh Cho'lponning adabiy-estetik qarashlaridagi muhim jihat shuki, u badiiy adabiyotni maqsad yo'lida jo'nlashtirish, "xalqchillik" va tushunarlilik talabi bilan uni quruq informatsiyaga aylantirish fikridan yiroq. SHu bois ham adib "Adabiyot nadir?"da: "to'b-to'g'ri aytganda ul qadar ta'sir qilmas, adabiyot bilan aytganda albatta ta'sir qilar..."- deb yozadi. Ko'ramizki, CHo'lpon adabiyotning asosiy xossasi — obrazlilikni

⁴ Чўлпон. Адабиёт надир.- Б.77

⁵ "Садои Фарғона".- 1914.- № 10.

nazardan qochirmaydi, "adabiyot bilan aytmoq" deganida u obrazli ifoda, obrazli fikr yuritishni nazarda tutadi.

Badiiy adabiyotning san'at hodisasi ekanligini unutmagani holda, CHo'lpon asosiy e'tiborni uning ijtimoiy funktsiyalariga qaratadi. YOsh adibning fikricha, "Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmag'on va adiblar etishtirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur". Albatta, bugungi kun nuqtai nazaridan CHo'lponning bu fikrida ozroq mubolag'a bordek ko'rinishi tabiiy. Biroq, avvalo, asr boshidagi sharoitni, bilim olishu dunyodagi sir-sinoatlardan xabardor bo'lib turishning yagona manbasi gazeta-jurnalu kitoblar bo'lganini unutmaslik lozim. Ikkinchi tomondan, CHo'lpon badiiy adabiyotni millat ma'naviyatiga mas'ul biladiki, bu da'vo hali hanuz o'z aktualligini yo'qotgan emas. Jadidchilik g'oyalari bilan yonib yashagan adib adabiyot timsolida millatga o'zligini tanita oladigan, uni buyuk ishlarga safarbar etishga qodir kuchni ko'radi. Biroq bu kuch hali o'zini namoyon qilolganicha yo'q, chunki adibning millatdoshlari tirikchilik tashvishiyo o'tkinchi hoyu havaslardan ortmayotirlar. Natijada esa "kundan-kunga ruhimiz tushib, kelaturg'on istiqbolimizga umidsiz qarab" yashamoqdalar. SHu bois ham hozirda millatga "o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi" bo'lmish adabiyot benihoya zarur, deb hisoblaydi CHo'lpon. E'tiborli jihati shundaki, CHo'lpon masalaga atroflicha yondashishga intiladi. YAni, u tirikchilik tashvishidan oshmayotgan ommani ayblash bilangina cheklanib qolmaydi, ijtimoiy falajlikning boshqa sabablarini ham qidiradi. Xususan, maqola oxirida muallif yurtdoshlarini adabiyot o'qishu adiblar etishtirishga da'vat etarkan: "Agarda "bayoz" va bema'ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo'lurmiz", — deya ogohlantiradi. Anglash mumkinki, CHo'lpon maqolasida nazarda tutilgan adabiyot — yangicha adabiyot, shu bois ham "adiblar etishturaylik!" chaqirig'iga alohida urg'u beriladi, adiblar etishtirish masalasining dolzarbligi qayta-qayta ta'kidlanadi. SHu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: nima uchun CHo'lpon adiblar etishtirish haqida qayg'uradi-yu, shoirlar haqida gapirmaydi? YO bu o'rinda "adib" so'zi

umumlashtiruvchi ma'noga egamikan? Albatta, "adib" so'zi umumlashtiruvchi ma'noda qo'llangan bo'lishi mumkinligini inkor qilolmaymiz. Biroq, bizningcha, "adib" deganida CHO'lpon ko'proq nosiru publitsistlarni nazarda tutgan ko'rinadi. Gap shundaki, avvalo, ko'hna tarixga ega milliy adabiyotimizda she'riyat rivojlangani holda, nasr har vaqt oqsab kelgan, aytmoqchimizki, shoirlar etishtirish masalasini kun tartibiga qo'yish zarurati bo'lmagan. Ikkinchi tomondan, o'ylashimizcha muhimrog'i ham — shu, jadidchilik harakati ko'zlagan maqsadga nasr, publitsistika, dramaturgiyaning foydasi ko'proq tegishi mumkin edi. Hartugul, jadid ma'rifatchilari adabiy ijodning ayni shu sohalariga ayrica e'tibor berganlari ma'lum. Zero, jadidchilikning deyarli barcha yirik namoyandalari publitsist bo'lgani, jadid ijodkorlarning deyarli barchasi dramaturgiya bobida o'zlarini sinab ko'rganlari ham shundan. Darvoqe, jadid matbuotida anchagina faol ishtirok etgan CHO'lponning o'zi ham inqilobga qadar atigi ikkitagina she'r e'lon qilgan, xolos. SHu jihatdan S.Mamajonov: "CHO'lpon ijodiy faoliyatini hikoya va publitsistik asarlar yozishdan boshlagan edi <...> uning she'riyatga ayrica diqqat qilishi, astoydil kirishishi, uni yashash va kurash maydoniga aylantirishi 1919 yillarga to'g'ri keladi",⁶ – deganida to'la haqdir. CHO'lpon "Muhtaram yozg'uchilarimizg'a" (1914) nomli maqolasida: "Hali bizga ko'b tiyotr va ro'mon kitoblari yozmoq kerakdurkim, bu qarz bir hovuch ziyoli yoshlarimiz ila ahli qalamimiz ustlariga tushadir",⁷ – deb yozgandiki, bu ham yuqoridagi fikrimizni quvvatlaydi. Jadidchilarning nasr va dramaturgiyaga bu xil ahamiyat berishlarining boisi shundaki, mazkur adabiy turlarning ikkisi ham hayotni kengroq ko'lamda tasvirlashu badiiy idrok etish, muayyan g'oyaviy-badiiy kontseptsyani yaxlit va izchil ifodalash imkonini beradi. CHO'lponning yuqoridagicha imkoniyatni keng miqyosda taqdim etuvchi roman janriga "shaydo"ligi ham shundan bo'lsa, ehtimol. Hartugul, roman janridagi ilk izlanishlar jadid adabiyotida ko'zga tashlanishi, "YAngi saodat", "Befarzand Ochildiboy" tipidagi asarlarning maydonga kelishi ham bejiz emas. CHO'lponning

⁶ "Ўзбек тили ва адабиёти".- 1991.- N 6.- Б.3

⁷ Чўлпон. Адабиёт надири.- Б.38

roman janriga bu xil munosabati "Doktor Muhammadiyor" hikoyasida yanada yorqinroq ifodasini topgan. Hikoya qahramoni Muhammadiyor Petrograd ekanida "Turkistonning madrasa shogirdlari hayotidan olub "Umrlik shogirdlar" nomli bir ro'mon yozdi. Ro'mon o'n ikki juz' bo'lub, Turkistonda hanuz shundog' milliy **maishatdan oling'on ro'mon chiqmag'on edi...** Bu ro'mon shunday **mohirona yozilg'on** ediki, madrasada qirq-ellik yil turganda ham shundog' yaxshi va shogirdlarning madrasada o'qumay samovarlarda davr surayotganlarini yozmoq mumkin emas (ta'kid bizniki - Yu.N.). Muhammadiyor - CHo'lpon xayolidagi adib ideali, shu bois ham u ijodda o'z "yaratuvchisi"ning adabiy-estetik qarashlariga muvofiq harakat qiladi. YOsh adib qarashlarini qahramon vositasida ifodalashning o'zi bilan qanoatlanmaydi, chog'i, satr ostida izoh berib, fikrlarini ochiqroq ifodalashga jazm qiladi: "Ushbu ro'mon xayoliy va yo'qdir. Faqat o'n ikki juz' bo'lmasun va olti juz' bo'lmasun, uch juz' qilub bo'lsa ham shul ismda **yuqorida ta'rif qiling'on ruhda** bir ro'mon yozmaklarini muharrirlardan o'tinaman. Xudo muharrirlarimizga g'ayrat!"

E'tibor berilsa, yosh CHo'lpon uchun "mahorat" tushunchasi "hayotga monandlik" tushunchasi bilan uyqash ekanligi anglashi-ladi. Adib adabiyotni hayotga yaqinlashtirish tarafdori, u adabiyotning vazifasi milliy turmushning eng dolzarb muammolari-ni qalamga olishda, deb biladi. SHu bois ham CHo'lpon "Muhtaram yozg'uchilarimizg'a" maqolasida qalam ahliga murojaat qilib, ularni "millatning eng tanqid qilinaturg'on o'rinlarida ara-lashub yurmakka" chaqiradi. CHunki "aralashub yurulsa, andagi so'zlarni, odamlarni o'rganmoqqa bo'ladirki, kitob betlariga ko'chirub yozmoqqa materiyollarning eng asllari xalq orasidan olinadur". Bu gaplarni CHo'lpon, o'zining e'tiroficha, Evropa yozuvchilari tajribasidan kelib chiqib aytadi, chunki ular "o'zlarining yaxshi yomon odatlari orasida yurubdurlar, so'ngra qo'llariga qalam olub, yaxshisini yaxshi, yomonini yomon ko'rsatub yozibdurlar".⁸ Tabiiyki, biz CHo'lpon bu o'rinda "ovruponing katta-katta muharrirlari"dan qaysilarini nazarda tutganini bilolmaymiz. Biroq, shunisi aniqqi, evropa ma'rifatchilari estetikasida adabiyotni hayotga

⁸ Чўлпон. Адабиёт надири.- Б.38

yaqinlashtirish asosiy tamoyillardan biri edi. Fikrimizning dalili uchun frantsuz ma'rifatchisi D.Didroning so'zlarini keltirib o'tmoqchimiz: "...poydite v kabak, i vo' uvidite, kak vo'glyadit rassvirepevshiy chelovek. Ihte ulich no'e proisshestiya, budte nablyudatelyami na ulitsax, v sadax, na ro'nkax, doma, i vo' sostavite sebe pravilno'e predstavleniya o nastoyahem dvizhenii vo vsekh jiznenno'x deystviyax".⁹ Diqqat qilinsa, frantsuz ma'rifatchisi bilan jadid adibi qarashlarida mushtarak o'rinlar borligini ko'rish qiyin emas. Albatta, CHO'lpon Didro yoki boshqa ma'rifatchilar asarlari bilan tanishgan bo'lishi ehtimoli yo'q emas. SHu bilan birga, konkret ijtimoiy-madaniy sharoitdagi qator o'xshashliklar bu xil mushtaraklikni tabiiy ravishda yuzaga keltirishi ham mumkin edi. Nima bo'lganda ham, CHO'lpon mavjud sharoitda milliy turmushni teran tahlil etib, "yaxshisini yaxshi, yomonini yomon ko'rsatub" beruvchi haqqoniy adabiyot zarurligini teran idrok qilgani uchun ham adiblarni hayotga chuqurroq kirib borishga undaganligi ravshandir.

⁹ Дидро Д. Собр. сочинений: В 10 т.- Т.6.- М.,1946.- С.216. Холисликка путур етмасин, деган андишада бу ерда ва бундан кейинги ўринларда русча манбалардан олинган иқтибосларни айнан келтириш маъқул кўринди.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Normatov U., Ochilov E. Tanqid, munaqqid va hozirgi adabiy jarayon // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. – № 4. – B. 35–44.
2. Normatov U. Adolatning yo'llari mashaqqatli // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 1997. – 14 noyabr.
3. Norxo'jaev Q. Men bilan CHo'lpon // SHarq yulduzi. – Toshkent, 1990. – №10. – B . 195–198.
4. Normatov M. G'afur G'ulom nafasoti // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2003. – 31 oktabr.
5. Oripov A. O'zbekning o'z shoiri // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 1993. – 28 may.
6. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2002. – 198 b.
7. Hamdamov U. YAngilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 196 b
7. Umurov H. Tahlil san'ati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – 143 b.
8. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: SHarq, 2002. – 252 b
9. Umurov H. Saylanma. –Toshkent: Fan, 2007. 1–jild. –205 b.
10. Umurov H. Saylanma. // Adabiy-tanqidiy tadqiqotlar. 2 – jild. – Toshkent: Fan, 2007. – 206 b.
11. Umurov H. Saylanma. // Xotiralar, qatralar, saboqlar, hajvlar. 3 – jild . –Toshkent: Fan, 2007. – 204 b.
12. Qo'shjonov M. Qodiriy – erksizlik qurboni. – Toshkent: Fan, 1992. – 96 b.
13. Yo'ldoshev Q. O'zbek modern adabiyoti: ildizlar, printsiplar va xususiyatlar // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2004. – №2-3. – B. 4-12
14. Yo'ldoshev Q. Ochilmagan g'unchalar chiroyi// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2005. – 10 iyun.

15. Otaboy A. Modernizm// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 1996.
– № 5.
16. Otaxonov O. Mutolaa // YOshlik. – Toshkent, 1989. – № 9. – B. 14
17. Ochilov E. Siz she'r aytasizmu yo odam qo'rqitasiz // O'zbekiston adabiyoti
va san'ati.– Toshkent, 2004. – 8 sentabr.
18. Rasulov A. Tunda chaqnagan yulduz// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. –
Toshkent, 2005. – 27 may.